



TRANSFORMATION OF THE LOCAL AIR DEFENSE SYSTEM INTO THE CIVIL DEFENSE SYSTEM

Boburjon Teshaboyev

Academy of the Ministry of Emergency Situations

Senior Lecturer of the Department

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: civil defense, emergencies, protection system, training exercises, shelter, population, security.

Received: 25.09.25

Accepted: 26.09.25

Published: 27.09.25

Abstract: The article provides a scholarly analysis of the formation and development of the civil defense system in Uzbekistan during the 1960s–1970s. It examines the reasons behind the transition from the local air defense system to civil defense, the organizational and legal foundations of this process, and the impact of Soviet-era political decisions and regulatory acts. The main tasks of civil defense—protecting the population from weapons of mass destruction, ensuring the resilience of the national economy, and eliminating the consequences of emergencies—are discussed in detail. The article highlights the organization of training sessions, practical drills, evacuation and dispersal measures, the construction of shelters, and the provision of personal protective equipment. The findings of the study reveal the specific features of the civil defense system, its strengths and weaknesses, and underline its scientific and practical significance for ensuring population safety in contemporary emergency situations.

MAHALLIY HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA TIZIMINING FUQARO MUDOFAA SI TIZIMIGA TRANSFORMATSIYASI

Boburjon Teshaboyev

FVV Akademiyasi kafedra katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: fuqaro mudofaasi, favqulodda vaziyatlar, himoya tizimi, oʻquv mashgʻulotlari, boshpana, aholi, xavfsizlik.

Annotatsiya: Maqolada 1960–1970-yillarda Oʻzbekistonda fuqaro mudofaasi tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayoni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimidan fuqaro mudofaasi tizimiga oʻtishning sabablari, tashkiliy-huquqiy asoslari hamda sovet davridagi siyosiy qarorlar va normativ hujjatlarning taʼsiri yoritilgan. Shuningdek, fuqaro mudofaasi tizimining asosiy vazifalari – aholining ommaviy qirgʻin qurollaridan himoyalaniishi, xalq xoʻjaligi barqarorligini taʼminlash, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kabi yoʻnalishlar ochib berilgan. Maqolada oʻquv mashgʻulotlari, amaliy mashqlar, evakuatsiya va tarqatish choralari, boshpana qurilishi hamda shaxsiy himoya vositalari bilan taʼminlash jarayonlariga alohida eʼtibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari fuqaro mudofaasi tizimining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning kuchli va zaif jihatlarini koʻrsatish bilan birga, zamonaviy favqulodda vaziyatlarda aholining xavfsizligini taʼminlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕСТНОЙ ПРОТИВОВОЗДУШНОЙ ОБОРОНЫ В СИСТЕМУ ГРАЖДАНСКОЙ ОБОРОНЫ

Бобуржон Тешабоев

*Академия МЧС, старший преподаватель кафедры
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гражданская оборона, чрезвычайные ситуации, система защиты, учебные занятия, убежище, население, безопасность.

Аннотация: В статье проводится научный анализ процессов формирования и развития системы гражданской обороны в Узбекистане в 1960–1970-е годы. Рассмотрены причины перехода от системы противовоздушной обороны к системе гражданской обороны, ее организационно-правовые основы, а также влияние политических решений и нормативных актов советского периода. Особое внимание уделяется основным задачам гражданской обороны – защите населения от оружия массового поражения, обеспечению устойчивости народного хозяйства, ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций. В статье раскрываются вопросы организации учебных занятий, практических учений,

эвакуационных и рассредоточительных мероприятий, строительства убежищ и обеспечения населения средствами индивидуальной защиты. Результаты исследования позволяют выявить специфику гражданской обороны, ее сильные и слабые стороны, что имеет важное научно-практическое значение для обеспечения безопасности населения в современных чрезвычайных ситуациях.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro munosabatlarda keskinlikning ortishi, qurollanish poygasining jadallashuvi va yadro quroli xavfining kuchayishi global xavfsizlik muammolarini keskinlashtirdi. Shu sharoitda davlatlarning xavfsizlik siyosati faqat front chizig'idagi harbiy harakatlarni emas, balki tinch aholini, ishlab chiqarish obyektlarini va ijtimoiy infratuzilmani himoya qilishni ham o'z ichiga olishi talab etildi. Harbiy davr sharoitida mamlakat hayot faoliyatini ta'minlash, aholining ommaviy qirg'in qurollari ta'siridan himoya qilinishi va xalq xo'jaligining barqaror ishlashini saqlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Mazkur jarayonda Mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimidan Fuqaro mudofaasi tizimiga o'tish tarixiy burilish nuqtasi bo'ldi. Fuqaro mudofaasi nafaqat harbiy hujum oqibatlarini yumshatish, balki keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy va ilmiy-amaliy choralarni qamrab olgan kompleks tizim sifatida shakllandi. Tizimning asosiy maqsadi – aholining xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish va transport obyektlarining uzluksiz faoliyatini saqlash hamda dushman hujumining oqibatlarini bartaraf etishga tayyorgarlik ko'rishdan iborat edi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, 1960–1970-yillarda O'zbekistonda Fuqaro mudofaasi tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini o'rganish nafaqat tarixiy tajribani tahlil qilish, balki zamonaviy favqulodda vaziyatlarda aholining xavfsizligini ta'minlash va hududiy xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tarixiy-analitik yondashuv qo'llanildi, ya'ni sovet davri hujjatlari, normativ-me'yoriy bazasi, o'quv mashg'ulotlari va amaliy mashqlar tajribasi tahlil qilindi. Shu bilan birga, tizimning tashkil etilishi, mashg'ulotlarning samaradorligi va Fuqaro mudofaasi tadbirlarining hududiy xususiyatlari ham o'rganildi.

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekistonda Fuqaro mudofaasi tizimining tashkil etilishi, rivojlanishi va amaliyotdagi xususiyatlarini ilmiy asosda aniqlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimidan Fuqaro mudofaasi tizimiga o'tish jarayonini tahlil qilish;
2. Fuqaro mudofaasi tashkilotlari va ularning shaxsiy tarkibi faoliyatini o'rganish;

3. o'quv mashg'ulotlari va amaliy mashqlar orqali aholini tayyorlash tajribasini tahlil qilish;
4. tizimning hududiy va tashkilotlararo xususiyatlarini aniqlash;
5. olingan natijalarni zamonaviy favqulodda vaziyatlar tizimi uchun amaliy tavsiyalar bilan bog'lash.

Tadqiqot ilmiy yangiligi shundaki, Fuqaro mudofaasi tizimi nafaqat tarixiy manbalar asosida, balki uning tashkil etilishi, o'quv jarayonlari, amaliy mashg'ulotlar va ommaviy targ'ibot vositalari orqali amalga oshirilgan faoliyatining kompleks tahlili bilan yoritiladi.

Tadqiqot natijalari aholini ommaviy qirg'in qurollaridan himoya qilish va favqulodda vaziyatlar boshqaruvi sohasida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, davlat organlari va jamoat tashkilotlariga favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik choralarini takomillashtirishga yordam beradi.

Harbiy davr sharoitida davlatning hayot faoliyatini ta'minlash uchun mavjud resurslar va ilmiy-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishga imkon beradigan yangi mudofaa tizimini tashkil etish zarurati yuzaga keldi. Shu maqsadda mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimini qayta tashkil etish lozim bo'ldi va 1961-yil iyulida uning o'rniga Fuqaro mudofaasi tashkil etildi.

Sobiq Ittifoq Fuqaro mudofaasi shtabi barcha ittifoqdosh va avtonom respublikalar, viloyatlar, shaharlar, tumanlar hamda iqtisodiy jihatdan muhim obyektlarda faoliyat yurita boshladi. Tizim hududiy ishlab chiqarish tamoyiliga muvofiq tashkil etildi va butun hududni qamrab oldi. Fuqaro mudofaasi tadbirlarini amalga oshirishda xalq deputatlari Sovetlari hamda vazirliklar, idoralar, korxonalar, o'quv yurtlari, sovxoz va kolxozlar rahbarligi muhim rol o'ynadi.

Harbiy davr sharoitini hisobga olib, aholini, iqtisodiy obyektlarni, uy hayvonlarini hamda oziq-ovqat va suv manbalarini raketa-yadro qurolining ta'siridan himoya qilish asosiy prinsiplari ishlab chiqildi. Shu bilan birga zarur normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv materiallari nashr etildi.

O'zbekiston Kompartiyasining XVI syezdida Fuqaro mudofaasiga rahbarlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu maqsadda Fuqaro mudofaasi shtablari, xizmatlari, obyektlari va tashkilotlarining shaxsiy tarkibi syezd qarorlarini amalga oshirish jarayonida mustahkam bilim va malaka orttirdi. Fuqaro mudofaasi shtablari mustahkamlandi, tizimning tashkilotlari tayyorgarlik darajasi oshirildi.

Fuqaro mudofaasi tizimining tibbiyot xizmati, xabar berish va aloqa, yong'inga qarshi, oziq-ovqat va buyumlar bilan ta'minlash, injenerlik xizmati va boshqa xizmatlar tizimli ravishda takomillashtirildi. Shuningdek, kolxozlar, sovxozlar, korxonalar va muassasalarda ommaviy tashkilotlar qutqaruv otryadlari, komandalar, gruppalar, birinchi tibbiy yordam otryadlari va sanitariya drujinalarini tashkil etish hamda ularni tayyorlash fuqaro mudofaasini mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi. Nazariy tayyorgarlikdan amaliy mashg'ulotlarga o'tilgan, shu jumladan yalpi qirg'in qurollaridan himoya qilish usullarini o'rgatish bo'yicha

19 soatlik dastur joriy etildi. “Havo hujumidan mudofaaga tayyor” ikkinchi bosqich normativlarini topshirish ham rejalashtirildi. Mashg‘ulotlarni DOSAAF jamoatchi instruktorlari olib bordi, ular avval havo hujumidan mudofaa maktablarida zarur tayyorgarlikdan o‘tgan edilar.

1961-yil iyul oyida Sobiq Ittifoq Fuqaro mudofaasi to‘g‘risidagi Nizomini qabul qildi. Hujjatda Fuqaro mudofaasi aholi va mamlakatning iqtisodiy obyektlarini tajovuzlardan himoya qilish maqsadida tinchlik davrida oldindan amalga oshiriladigan umummilliy mudofaa tadbirlari tizimi sifatida belgilandi[5]. Nizom aholini ommaviy qirg‘in qurollaridan himoya qilishning asosiy tamoyillarini belgiladi. Aholini himoya qilishning eng muhim usuli sifatida tarqatish va evakuatsiya tadbirlari rejalashtirilgan edi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, tarqatish va evakuatsiya shahar va tumanlardagi xavf yuqori bo‘lgan hududlardan odamlarni shahar atrofi va qishloqlarga olib chiqish imkonini yaratib, mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni sezilarli darajada kamaytirgan. Evakuatsiyadan keyin shaharlarda qolgan ishchi va xizmatchilar, ya‘ni sanoat korxonalari, transport, energetika, aloqa va boshqa muhim sohalarda faoliyatni davom ettirayotganlar, ish joylariga yaqin hududlarda boshpana bilan ta‘minlandi. Shahar turar-joy binolarida yerto‘lalar tashkil etilishi ko‘zda tutilgan edi.

Qishloq aholisini va evakuatsiya qilingan fuqarolarni radioaktiv nurlanishdan himoya qilish uchun yerto‘lalar, omborxonalar va boshqa ko‘milgan inshootlardan foydalanish zarur edi. Shuningdek, shaxsiy himoya vositalarini to‘plash va saqlash muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, gaz niqoblari, respiratorlar va changga qarshi mato niqoblari kabi vositalar tizimli ravishda jamlangan.

Fuqaro mudofaasi tizimi bilan Mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimi o‘rtasida bir qator farqlar mavjud edi:

- tadbirlar umumdavlat va umummilliy xarakterga ega bo‘lib, Fuqaro mudofaasi bo‘yicha barcha faoliyatlar respublika miqyosida rejalashtirildi va amalga oshirildi. Bu tadbirlar har bir fuqaro va jamoaga tegishli edi;

- himoya choralar tizimi aholining va hududning ommaviy qirg‘in qurollarining zararli ta‘siridan himoyalaniishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan edi, bu esa tizim vazifasini murakkablashtirdi.

- Fuqaro mudofaasi tomonidan hal qilinadigan vazifalar doirasi kengaydi; jumladan, harbiy davrda sanoat faoliyatini davom ettirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalasi qo‘shildi;

- tizim yangi turdagi dushman hujumining oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan edi.

Strategik nuqtai nazardan, Fuqaro mudofaasi tizimi mamlakatning faol havo mudofaasi bilan birgalikda kelajakdagi harbiy davrda “qabul qilib bo‘lmaydigan zarar” konsepsiyasiga qarshi turish vazifasini bajardi. Bu konsepsiyaning ma‘nosi dushmanni zarur darajada mag‘lub etishdan iborat edi. Yadro urushi sharoitida aholining 25–30% va yirik shaharlarda to‘plangan ishlab

chiqarish quvvatlarining 50–70% yo‘q qilinishi ushbu maqsadga erishish uchun yetarli hisoblangan.

Fuqaro mudofaasi nazariyasi va amaliyoti urush olib borishga oid zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan edi. Shu maqsadda barcha Fuqaro mudofaasi tadbirlari uch guruhga ajratilgan:

1. Aholini himoya qilish vazifalari: bu guruh ommaviy qirg‘in qurollari va boshqa zamonaviy hujum vositalaridan aholini himoya qilishga qaratilgan. Himoya asosan himoya inshootlari, boshpana va radiatsiyaga qarshi boshpana qurish hamda shaxsiy himoya vositalarini (gaz niqoblar, respiratorlar va boshqa vositalar) to‘plash va ta‘minlash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalarini uyg‘un qo‘llash tizimini takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

2. Xalq xo‘jaligini barqarorlashtirish tadbirlari: Ushbu guruh harbiy davrda xalq xo‘jaligi obyektlarini doimiy ishlashini ta‘minlash va ishchi-xizmatchilar hayot faoliyatini davom ettirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

3. Ommaviy qirg‘in qurollari oqibatlarini bartaraf etish vazifalari: Bu guruh Fuqaro mudofaasi kuchlari va vositalarini erta tashkil etish, ularni vayronagarchilik markazlarida qutqaruv va shoshilinch tiklash ishlariga tayyor holda saqlash, shuningdek jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi [1, 16].

Bu masalalarni amalga oshirish uchun viloyat, tuman va shaharlarda, shuningdek, tashkilotlar, o‘quv muassasalari, kolxoz va sovxozlarda harbiylashtirilmagan Fuqaro mudofaasi tuzilmalari tashkil etildi.

Viloyat, shahar va tuman darajasida o‘ziga xoslik va moddiy bazaning mavjudligiga qarab, tegishli ijroiya qo‘mitalari qarori bilan quyidagi xizmatlar faoliyat yuritdi: aloqa, tibbiyot, radiatsiya va kimyoviy moddalardan himoya, jamoat tartibini saqlash, yong‘inga qarshi kurash, muhandislik, kommunal xizmatlar, avtotransport, logistika, energetika, texnik va boshqa xizmatlar. Mazkur xizmatlarning rahbarlari sifatida tegishli tashkilotlarning rahbarlari tayinlandi. Xizmat rahbarlari Fuqaro mudofaasi bo‘yicha maxsus tadbirlarni o‘tkazish majburiyatini oldilar va ularning tarkibidagi barcha korxona, tashkilot va muassasalarda ushbu vazifalarni bajarish uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oldilar.

Fuqaro mudofaasi dasturi eng kam xarajatni hisobga olgan holda amalga oshirilishi rejalashtirilgan edi. Aholini himoya qilishda tabaqalashtirilgan kompleks yondashuv qabul qilindi. Shu yondashuvga ko‘ra, turli toifalarga bo‘lingan shaharlarda harbiy davrda faoliyatini davom ettirishi kerak bo‘lgan korxonalarining eng katta ish smenasi uchun tinchlik davrida boshpanalar qurildi. Ushbu boshpanalar taxminan 15 million kishi uchun mo‘ljallangan edi. Shuningdek, tizim

suv manbalari, oziq-ovqat, yem-xashak va qishloq xo'jaligi hayvonlarini himoya qilish bo'yicha alohida chora-tadbirlarni amalga oshirdi [2].

Fuqaro mudofaasi shtablari 1962-yilda aholini o'qitish bo'yicha bir qator tadbirlarni o'tkazgan bo'lsa-da, bu jarayonda jiddiy nuqson va kamchiliklar mavjud edi. Aholini to'garaklarda o'qitish sifatini yaxshilash talab etildi. Asosan nazariy mashg'ulotlar o'tkazilgan, amaliy mashg'ulotlar esa kam bo'lgan. Shaharlar va qishloq joylardagi aholi signallarga muvofiq harakat qilishni yaxshi o'rganmagan, yalpi qirg'in qurollaridan himoya qilish usullarini yetarlicha bilmagan, moddiy baza esa yetarli darajada tashkil etilmagan edi.

Respublika Fuqaro mudofaasi shtabi oldida aholini umumiy majburiy tayyorgarlikni uyushqoqlik bilan va yuqori saviyada o'tkazish, shu bilan birga katta yoshdagi butun aholini qamrab olish vazifasi turar edi. Aholini yalpi qirg'in qurollaridan himoya qilish, hujum oqibatlarini bartaraf etish, shaxsiy va bir-biriga yordam ko'rsatish harakatlariga o'rgatishga alohida e'tibor qaratildi.

Tayyorgarlik jarayonida aholi tobora ko'proq Fuqaro mudofaasi obyektlari, shahar va tuman mashqlariga jalb qilindi. Xususan, Samarqand, Andijon, Toshkent, Xorazm va Farg'ona viloyatlarida minglab kishilar mashqlarda ishtirok etib, ular uyushqoqlik bilan va yuqori saviyada o'tkazildi [3, 6].

Fuqaro mudofaasi shtabining 1963-yil may va iyul oylarida Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida o'tkazgan namunali mashqlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Mashqlarda ishtirokchilar harbiy sharoitda respublika va viloyat darajasida Fuqaro mudofaasini boshqarishni tashkil etish, yalpi qirg'in qurollaridan himoyalaniishning asosiy prinsiplari, Fuqaro mudofaasi tashkilotlarini tuzish hamda yalpi qirg'in quroli oqibatlarini bartaraf etishda ushbu tashkilotlardan qanday foydalanish kerakligi bilan tanishdilar. Shuningdek, mashq qatnashchilari uy hayvonlari, oziq-ovqat, yem-xashak va suv manbalarini himoya qilish tamoyillari, bakteriologik va kimyoviy zararlanish manbalarini bartaraf etish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish bilan ham tanishdilar. Mashqlarda aholini radiatsiyadan himoya qilish tadbirlariga alohida e'tibor qaratildi. Bu, jumladan, radioaktiv cho'kindilar tushadigan hududlarni prognoz qilish, radioaktiv zararlanish xavfi to'g'risida aholini xabardor qilish, radioaktiv nurlanishni nazorat qilish, zararlangan hududlarda aholi xatti-harakatini tashkil etish va tibbiy yordamni ta'minlash ishlarini o'z ichiga oldi.

Ommaviy qirg'in qurollari qo'llanilgan taqdirda hududlarda ko'plab qutqaruv tadbirlarini amalga oshirish zarur edi. Shu maqsadda, KPSS Markaziy Qo'mitasi va Sobiq Ittifoq Vazirlar Kengashining 1963-yil 4-noyabrda 1132-416-sonli "Mamlakat aholisini ommaviy qirg'in qurolidan himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida respublikada aholini yalpi qirg'in qurolidan himoya qilish usullariga majburiy o'rgatishni takomillashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqildi. Tadbirlar doirasida aholini yadroviy va bakteriologik qurollardan himoya qilish usullarini 19 soatlik dastur asosida majburiy o'rgatish nazarda tutilgan edi. Bu tadbirlar natijasida Sirdaryo viloyatida aholini yadro, kimyoviy va bakteriologik qurollardan himoya qilish bo'yicha tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada yaxshilandi[4, 7].

1964–1965-yillarda Qashqadaryo viloyatida o'tkazilgan bir qator mashqlar davomida qatnashchilarga Fuqaro mudofaasi tashkilotlari shaxsiy tarkibi va tumanlardagi qishloq aholisining kuchlari bilan radiatsiyaga qarshi boshpana joylarini tayyorlash va jihozlash tartibi ko'rsatildi. Xususan, Shahrisabz tumanidagi Lenin nomli va Kitob tumanidagi Kuybishev nomli kolxozlar bu vazifani muvaffaqiyatli bajardilar. Shuningdek, respublikaning boshqa viloyatlarida ham muayyan tadbirlar tashkil etildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va respublika Ministrlar Soveti barcha partiya va sovet tashkilotlari, DOSAAF qo'mitalari va Qizil Yarim Oy jamiyatini aholini yalpi qirg'in qurolidan himoya qilish usullariga o'rgatish sifatini oshirishga safarbar etishni talab qildilar. Shu maqsadda Fuqaro mudofaasi asosiy tadbirlarini tasdiqlash orqali vazifani amalga oshirish ta'minlandi. Jumladan, barcha kinoteatrlardan foydalanish taklif etildi; uch oy davomida "Aholini atomdan himoya qilish", "Hamisha tayyor bo'lib turaylik", "Aholini kimyoviy hujumdan himoya qilish" va "Aholini radioaktiv bulut o'tadigan joylarda himoya qilish" kabi bir qator kinofilmlar namoyish etildi[6].

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti hamda viloyat va tuman ijroiya komitetlari aholini tayyorlash bo'yicha nazorat topshiriqlari va muddatlarini belgiladilar. Ushbu topshiriqlar o'z vaqtida muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, kolxozlar va sovxozlarning rahbarlariga yetkazildi. Shu maqsadda ko'p miqdorda yakka himoya vositalari, turli apparatlar va boshqa zarur buyumlar sotib olindi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1965-yil 28-maydagi kengaytirilgan kengashida aholini yalpi qirg'in qurolidan himoya qilish usullariga o'rgatish jarayoni muhokama qilindi. Kengashda Qoraqalpog'iston ASSR, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va boshqa hududlarda aholini belgilangan 19 soatlik dastur asosida o'qitishning qoniqarsiz amalga oshirilayotgani qayd etildi[8].

1967-yildan boshlab aholini Fuqaro mudofaasi bo'yicha tayyorlash uchun yangi o'quv dasturi joriy etildi. Ushbu dastur 21 soatga mo'ljallangan bo'lib, u yalpi majburiy bilimlar minimumini ta'minlashga qaratilgan edi. Dastur doirasida 12 ta dars mashg'uloti uchun 7 ta mavzu belgilangan edi [5, 143]. Endilikda har bir rahbar o'z tashkilotidagi xodimlarni shaxsan o'qitishi majburiy etib belgilandi. Respublika Fuqaro mudofaasi shtabi korxona va muassasalar

rahbarlariga ishchi va xizmatchilarni tayyorlashda amaliy yordam berish maqsadida “Buni hamma bilishi kerak” eslatmasini rus, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ko‘p nushada nashr etdi. Ushbu tadbir aholini Fuqaro mudofaasi dasturi bo‘yicha tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi.

1967-yilning oktabr oyida Sobiq Ittifoqning umumiy majburiy harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonuni qabul qilindi. Qonunning 17-moddasida o‘quvchi yoshlarning boshlang‘ich harbiy tayyorgarligi, shu jumladan Fuqaro mudofaasi bo‘yicha tayyorgarligi umumta‘lim maktablari hamda hunar-texnika ta‘limi tizimidagi o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida shtabdagi harbiy rahbarlar tomonidan tashkil etilishi kerakligi ta‘kidlandi. Aholini yoppasiga o‘qitish tizimida o‘quvchilarga va oliy o‘quv yurtlarining talabalariga Fuqaro mudofaasi dasturi bo‘yicha ta‘lim berish muhim o‘rin egalladi. Shu maqsadda 5–9-sinflarda Fuqaro mudofaasi bo‘yicha maxsus ta‘lim joriy etildi[3, 14].

Jamoat tashkilotlari Fuqaro mudofaasi tizimini mustahkamlash, yalpi qirg‘in qurollaridan himoya qilish, yong‘in, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlarga qarshi kurash usullarini o‘rgatish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirdi. Shu jumladan, 6–7-sinf o‘quvchilari “Havo hujumidan mudofaaga tayyor” normativlari asosida, shuningdek aholini kimyoviy va bakteriologik qurollardan himoya qilish bo‘yicha 19 soatlik dastur asosida o‘qitildi.

Aholi o‘rtasida Fuqaro mudofaasi usullari targ‘ib qilindi: ma‘ruzalar va dokladlar o‘qildi, suhbatlar va musobaqalar o‘tkazildi, ko‘rgazmalar tashkil etildi, 600 dan ortiq stend jihozlandi.

Fuqaro mudofaasi bo‘yicha targ‘ibotni kuchaytirish maqsadida 1970-yil mart oyida ijodiy xodimlarning respublika kengashi o‘tkazildi. Unda respublika va viloyat gazetalari va jurnallarining bosh redaktorlari hamda mahalliy gazetalar xodimlari ta‘lim oldi, bu esa mehnatkashlar o‘rtasida Fuqaro mudofaasini targ‘ib qilishni sezilarli darajada kuchaytirdi.

Mahalliy “Bilim” jamiyati, DOSAAF va Qizil Yarim Oy jamiyatlari Fuqaro mudofaasi bo‘yicha bilimlarni targ‘ib qilishni sezilarli darajada yaxshiladi; ular tematik va savol-javob kechalari, seminarlar, kitobxon konferensiyalari va uslubiy kengashlar o‘tkazdilar. Respublika Kinematografiya davlat qo‘mitasining viloyatlardagi bo‘linmalari esa Fuqaro mudofaasi bo‘yicha yuzlab kinoseanslarni tashkil etdi[7].

Samarqand viloyati Fuqaro mudofaasi shtabining tarkibi hamda “Серп и молот” zavodi tashkilotlarining shaxsiy tarkibi musobaqa tashabbuskorlari sifatida faol ishtirok etdi. Fuqaro mudofaasi bo‘yicha musobaqa g‘oliblariga topshirish uchun ko‘chma Qizil bayroq ta‘sis etildi, birinchi bo‘lib esa u Farg‘ona viloyati Fuqaro mudofaasi shtabiga topshirildi [3, 17].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Fuqaro mudofaasi tizimining paydo bo‘lishi insonning abadiy va eng muhim ehtiyojlaridan biri, harbiy davrda ishonchli xavfsizlikni ta‘minlashning evolyutsion, tabiiy jarayonidir. Mahalliy havo hujumidan mudofaa tizimining fuqaro mudofaasiga aylantirilishi uning rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichning boshlanishi, eng avvalo butun

aholi, obyektlar va xalq xo'jaligi tarmoqlarini ommaviy qirg'in qurollaridan va har tomonlama himoya qilish bo'yicha izchil qarashlar tizimini rivojlantirish va shakllantirishni ko'rsatdi.

Juda katta ishlar amalga oshirilganiga qaramay, Fuqaro mudofaasi tizimida kamchiliklar, foydalanilmagan zahiralarni ham mavjud edi. Birinchi navbatda fuqaro mudofaasining barcha bo'g'inlarini tajribali xodimlar bilan mustahkamlash zarur edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. С.Ахунджанов. Гражданской обороне Узбекикой ССР-пятьдесят лет.. Т.: "Знание", 1982.-16 стр
2. Постановление Совета Министров СССР от 21.11.1964 г. №948—370 «Об усилении контроля в области радиационной, бактериологической и химической защиты объектов внешней среды, пищевого сырья, продуктов питания и фуража».
3. С.Охунджонов. Ўзбекистон Граждан мудофааси хозирги боскичда. Т.: "Ўзбекистон" 1982. 6,7,14,17 бетлар.
4. Шойгу С. К. От МПВО к гражданской защите (исторический очерк). М.: «УРСС», 1998.стр 143.
5. Гражданская оборона СССР: Учебное пособие. Москва: Воениздат, 1967.
6. Бобоев Ш. «Гражданская оборона и её задачи в условиях научно-технического прогресса». Ташкент: Фан, 1975.
7. DOSAAF va Qizil Yarim Oy jamiyati faoliyati: Fuqaro mudofaasi bo'yicha metodik materiallar. – Toshkent: DOSAAF nashriyoti, 1970.
8. Sh.Ahmadov. "Fuqaro mudofaasi bo'yicha targ'ibot tadbirlari va ahamiyati". – Toshkent: Harbiy pedagogika jurnali, 1975, №3. – B. 15–23.